

VOYAGA YETMAGANLAR HUQUQBUZARLIKLARINING PROFILAKTIKASIDA MAHALLA FUQAROLAR YIG'INLARINING O'RNI

Narziyev Shaxzodbek Zoyirovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

Huquqbuzarliklar profilaktikasi kafedrası o'qituvchisi

Nurullayev Avazbek Sodiq o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 3-o'quv kursi

317-guruh kursanti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14134925>

Annotatsiya: Maqolada voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarining profilaktikasida Mahalla fuqarolar yig'inlarining tutgan o'rni va ahamiyati haqida so'z boradi.

Annotation. The article talks about the role and importance of community gatherings in the prevention of juvenile delinquency.

Kalit so'zlar: Voyaga yetmaganlar, g'ayriijtimoiy xulq-atvor, voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar.

Keywords: minors, antisocial behavior, prevention of neglect and delinquency among minors, children in need of social protection.

Bugungi kunda hayotimizning turli jabxalarida insonlar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklar soni tobora ortib bormoqda. Ayniqsa ular orasida voyaga yetmagan shaxslarning ham mavjudligi, bugungi kunning asosiy muammolaridan biri hisoblanadi. Shu sababdan ham voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarining oldini olish, ular orasidagi sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yish, ularning ma'nan yetuk, jismonan baquvvat bo'lib yetishishlari uchun davlatimiz tomonidan bir qator islohotlar amalga oshirildi. Hukumatimiz tomonidan bu masalada qonun hujjatlari ishlab chiqilib ularning ijrosi tegishli davlat organlari zimmasiga yuklatildi.

Farzand tarbiyalayotgan ota-ona har bir harakati, yurish turishi, muomalasi, boshqalar bilan o'zaro munosabatida olijanob fazilatlarni namoyon eta bilishi kerak. Chunki bola tabiatan nihoyatda taqlidchan va kuzatuvchan bo'ladi. Shuning uchun uning atrofida o'z odatlari bilan ba'zan o'zlari sezmay holda ularga ta'sir qiladilar. Oiladagi qo'pol munosabatlar, ko'p yolg'on gapirish, yoqimsiz xati-harakat bola tarbiyasiga salbiy ta'sir qiladigan nosog'lom muhitni keltirib chiqaradi ¹.

Darhaqiqat xalqimiz bola tarbiyasi, uning kamoloti uchun aslo befarq emas. Ota bobolarimizning "bir bolaga yetti mahalla ota-ona" hikmati zamirida bir qancha ma'no yotadi. Bugungi kunda hukumatimiz tomonidan yoshlar uchun yaratib berilgan bir qator imkoniyatlarga qaramay, ular o'rtasidagi sodir etilayotgan huquqbuzarliklar masalasi davlatimiz va keng jamoatchilikni jiddiy tashvishga solib kelmoqda.

So'ngi yillarda Respublikamizda voyaga yetmaganlar o'rtasida sodir etilayotgan jinoyat ko'rsatkichlariga e'tibor beradigan bo'lsak, birgina 2023-yilning 8 oyi davomida respublikada 2121 nafar voyaga yetmaganlar tomonidan jami 2024 ta jinoyat sodir etilgan. Ushbu

¹ ўғли Гадоёмировов Б. О. ВОЯГА ЕТМАГАНЛАР ЎРТАСИДА ФИРИБГАРЛИК ЖИНОЯТИНИНГ САБАБЛАРИ ВА УНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШ //Analysis of world scientific views International Scientific Journal. – 2024. – Т. 2. – №. 3. – С. 39-44.

jinoyatlarda 1424 nafar maktab o'quvchilari ishtirok etgan bo'lsa, ularning 291 nafari akademik litsey va kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari tomonidan sodir etilgan. 142 nafar ishlamasdan yurganlar (maktabni tamomlagan) hamda 264 nafar ishlaydigan voyaga yetmaganlar ham jinoyat sodir etishda qatnashgan.² 2021 yilda 1472 nafar voyaga yetmagan shaxs sudlangan bo'lsa, 2022 yilda bu ko'rsatkich 2116 nafarga yetgan. 2022-yilda Voyaga yetmagan shaxslar tomonidan ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar 389 ta, uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar soni 510 tani tashkil qilgan.³

Shu nuqtayi nazardan ham bugungi kunda voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarni oldini olish, ularni ijtimoiy jihatdan qo'llab quvvatlash borasida bir qator islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bu borada Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining o'rnini ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Yoshlar bilan ishlash Prezidentdan tortib vazirgacha, hokimdan tortib mahalla raisigacha - hammamizning eng asosiy ishimizga aylanishi zarur. Har qaysi hokim, har bir vazir, har qaysi mahalla raisi "Bugun men yoshlar uchun nima ish qildim? Ertaga farzandlarimiz manfaati uchun yana nima ish qilishim kerak?" degan savollarga javob beradigan, shunday e'tiqod bilan yashaydigan vaqt keldi" deya takidlaganlar. Darhaqiqat bugun yoshlar, xususan voyaga yetmaganlarga qaratilgan e'tiborni yuksak baholash mumkin.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 1920-yil 20-noyabrda qabul qilingan "Bola huquqlari to'g'risida"gi konvensiyaga binoan 18 yoshga to'lmaganlarning barchasi bola deb tan olingan. O'zbekiston Mustaqillikka erishgach, Mustaqil davlatlar hamdo'stligi tashkiloti (MDH) davlatlari orasida birinchilardan bo'lib, 1992-yil 9-dekabr kuni ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qildi. Konvensiyaga binoan, bola mustaqil shaxs sifatida qabul qilinadi. Konvensiya bolani o'ziga xos huquqlarga ega bo'lgan shaxs sifatida tavsiflaydi: yashash huquqi (6-modda), oila qurish (9-modda), ismi va fuqaroligi bo'yicha. Ta'lim to'g'risida (7-modda), zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida (19-modda), tenglik, fikr va so'z erkinligi to'g'risida

(13-modda), dam olish va hordiq chiqarish (31-modda), tibbiy. xizmat ko'rsatish va sog'liqni saqlash (24-modda), davlat yordamida (18-27-modda) va boshqalar mustahkamlab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasining Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi 105-moddasida "Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular raisini (oqsoqolni) saylaydi" deya o'z aksini topgan.

Mahalla fuqarolar yig'inlari qonunchiligimizda Fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlari sifatida e'tirof etilgan. Unga quydagicha tarif berilgan: "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi fuqarolarning mahalliy ahamiyatga molik masalalarni o'z manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek milliy va ma'naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda hal qilish borasidagi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlanadigan mustaqil faoliyatidir"⁴

² IIV Jamoat xavfsizligi departamentining O'zbekiston Milliy axborot agentligiga bergan ma'lumotnomasidan 11:36 / 03.10.2023-yil.

³ <https://kun.uz/uz/news/2023/09/26>

⁴ Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risidagi Qonunining 3-moddasi / 2013-yil 22-aprel O'RQ-350-son

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risidagi qonunda voyaga yetmaganlar ishlariga taaluqli bo'lgan quyidagi vakolati keltirib o'tilgan:

Kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam ko'rsatish va voyaga yetmagan bolalari bo'lgan muhtoj oilalarga, ikki yoshga to'lmagan bolalari bor ishlamaydigan onalarga, shuningdek budjet tashkilotlarida ishlaydigan onalarga hamda ularning o'rnini bosuvchi shaxslarga nafaqalar tayinlash to'g'risidagi masalalarni fuqarolar yig'ini hududi bo'yicha nazarda tutilgan xarajatlardan kelib chiqqan holda hal etadi, oilalarni davlat tomonidan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadlariga markazlashtirilgan tarzda ajratiladigan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanilishini ta'minlaydi.

Shu nuqtayi nazardan voyaga yetmaganlar o'rtasida sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning katta qismi yetishmovchilik va kam taminlanganlik deb hisobga oladigan bo'lsak, bu muammoni albatta Mahalla fuqarolar yig'ini hal qiladi.

Xulosa o'rnida O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-sentabrdagi "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida" gi qonunida ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlar bilan yakka tartibdagi⁵ profilaktik ishlarni tashkil etishda Bolalar masalalari bo'yicha komissiyalar (9-m), Ichki ishlar organlari (10-m), Ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari (11-m), Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy huquqiy yordam ko'rsatish markazlari (12-m), Ta'limni boshqarish organlari va ta'lim muassasalari (13-m), Ixtisoslashtirilgan o'quv tarbiya muassasalari (14-m), Vasiylik va homiylik organlari (15-m), Sog'liqni saqlashni boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalari (16-m), Mehnat organlari (17-m)⁶, O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi va uning hududiy bo'linmalari (17¹ -m), Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasida madaniyat va san'at markazlari, turizm sohasidagi tashkilotlarning hamda ommaviy axborot vositalarining ishtiroki (18-m), Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasida fuqarolrning o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari ishtirok etib, qonunda ko'rsatilgan vakolatlari doirasidagi ishlarni amalga oshiradilar. Qonunning ushbu talablalaridan kelib chiqqan holda ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan⁷ Voyaga yetmagan shaxslar bilan ishlash ham ular o'rtasida huquqbuzarliklarni oldini olish jarayonida Fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlari quyidagi ishlarni amalga oshirishlarini tavsiya etamiz:

- Voyaga yetmaganlar bilan doimiy ravishda ularning ota-onasi yoki yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar ishtirokida profilaktik suhbatlarni o'tkazish;
- G'ayri ijtimoiy xulq atvorli voyaga yetmagan shaxslarni alohida kuzatuvga olish. Bunda ularga o'qituvchi, murabbiylarni ro'lini kuchaytirish;
- Mahallalar markazlarida hunarmandchilik o'quv amaliy to'garaklarni tashkil etish va ularga voyaga yetmaganlarni jalb qilish. Amaliy tajribaga ega bo'lgan kichik biznes va

⁵ Зиёдуллаев, М. З. (2015). Аҳоли турар жойларида жамоат тартибини сақлаш тизимлари: тарихи, бугуни ва хориж тажрибаси: Ўқув қўлланма. Т.: ЎзР ИИВ Академияси.

⁶ O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-sentabrdagi „Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida“ gi O'zRQ-263-son <https://lex.uz/acts/-1685726>

⁷ Зиёдуллаев, М. (2018). Жамоат тартиби” ва “Жамоат хавфсизлиги” тушунчаларининг моҳияти ҳамда ўзаро боғлиқлиги. *Ҳуқуқий тадқиқотлар журнали.*—2018, 7.

tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi shaxslarni ularga biriktirish choralari ko'rish.

- Vaqtincha ishsiz mehnatga yaroqli voyaga yetmaganlarni bandligini ta'minlash. Ularga munosib ish haqi to'lanishini ta'minlash va nazorat ostiga olish;
- Mahalladagi nuroniylar va faxriylar ishtrokida davra suhbatlarini tashkil etish⁸;
- Mahallalarda Voyaga yetmagan shaxslarga psixologik xizmat ko'rsatuvchi kurslarni joriy etish⁹;

Voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarni oldini olish uchun quydagi usullardan foydalanish mumkin:

1. **Ogohlantirish.** Voyaga yetmaganlarga huquqbuzarliklarning oqibatlarini yaxshiroq tushunishlari uchun soddalashtirilgan metodik materiallarni ishlab chiqish. Hamda ularga qonuniy tus berish orqali jinoyat uchun jazo, javobgarlik va boshqa salbiy oqibatlari haqida ogohlantirish zarur.

2. **Ta'lim va tarbiya.** Voyaga yetmaganlarga ular o'rtasida huquqbuzarliklarini oldini olish uchun o'ziga xos ta'lim dasturlari, tarbiyaviy video roliklar va huquqbuzarliklarga bog'liq bo'lgan bilimlarni ishlab chiqish hamda bu bo'yicha ularning o'qituvchilari, ota-onalar va tarbiyachilariga tushuntirishlar berish maqsadga muvofiq.

3. **Oila va jamoatning qo'llab quvvatlashi.** Voyaga yetmaganlarni jinoyat yo'lidan qaytarish uchun oila va jamoatning qo'llab-quvvatlashi juda muhimdir. Ota-ona, qarindosh, qo'ni-qoshnilar, mahalladagi barcha yoshi kata insonlarning yoshlar o'rtasida tashkil etiladigan sport va boshqa ommaviy tadbirlarga jalb etishlar, qo'llab quvvatlashlari zarur. Nuroniylarniylar, faxriylar va namuna bo'la oladigan insonlar ishtrokida davra suhbatlarini tashkil etish esa ularda o'zoro ishonch, vatanparvarlik, mehr muhabbat tuyg'ularni shakllantiradi.

4. **Rag'batlantirish.** Eng namunali yoshlarni munosib rag'batlantirish. Ularni moddiy va ma'naviy tomondan mukofotlash orqali ularda ertangi kunga ishonch, harakat va ma'suliyat hissini shakllantiradi.

References:

1. O'zbekiston respublikasining Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel / <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. 1989-yil 20-noyabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 44/25-sessiyasi, <https://tergov.uz/uz/childs>.
3. O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasi / 2013-yil 22-aprel O'RQ-350-son, <https://lex.uz/docs/-2156899>
4. IIV Jamoat xavfsizligi departamentining O'zbekiston Milliy axborot agentligiga bergan ma'lumotnomasi 11:36 / 03.10.2023-yil
5. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-sentabrdagi "Voyaga yetmaganlar o'rtasida

⁸ Зиёдуллаев, М. З. (2022). Хоразм вилоятида ўғрилиқ жиноятларининг бугунги ҳолати ва уларнинг барвақт олдини олиш йўллари. *Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук*, 2(10 Special Issue), 4-8.

⁹ Зиёдуллаев, М. З. (2022). Хоразм вилоятида ўғрилиқ жиноятларининг бугунги ҳолати ва уларнинг барвақт олдини олиш йўллари. *Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук*, 2(10 Special Issue), 4-8.

nzoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida" gi O'RQ-263-son <https://lex.uz/acts/-1685726>

6. Зиёдуллаев, М. З. (2015). Аҳоли турар жойларида жамоат тартибини сақлаш тизимлари: тарихи, бугуни ва хориж тажрибаси: Ўқув қўлланма. Т.: ЎзР ИИВ Академияси.

7. Зиёдуллаев, М. (2018). Жамоат тартиби" ва "Жамоат хавфсизлиги" тушунчаларининг моҳияти ҳамда ўзаро боғлиқлиги. *Ҳуқуқий тадқиқотлар журнали.* – 2018, 7.

8. Зиёдуллаев, М. З. (2022). Хоразм вилоятида ўғрилиқ жиноятларининг бугунги ҳолати ва уларнинг барвақт олдини олиш йўллари. *Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук*, 2(10 Special Issue), 4-8.

9. Водолазский, Р. В. К вопросу уточнения понятия организации материально-технического обеспечения органов внутренних дел российской федерации при чрезвычайных обстоятельствах. *Инновации*, (42), 282-286.

